



Namozov Jo'rabek

**YER-SUV
RESURSLARIDAN
FOYDALANISH GEOGRAFIYASI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYAT

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

NAMOZOV JO'RABEK ABDUAZIZOVICH

YER-SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH GEOGRAFIYASI

(Samargand viloyati materiallari asosida)

MONOGRAFIYA

Toshkent
«HISTORY AND PAGE»
2022

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITE
AXBOROT RESURS MARKA

UDK 911.3:33:330.15 (575.1)
KBK 65.290-1
N40

Namozov J.A. Yer – suv resurrlaridan foydalanish geografiyasi (Samargand viloyati materiallari asosida).- Toshkent: «HISTORY AND PAGE», 2022. – 136 bet.

Monografiyada yer-suv resurrlaridan foydalanishning geografik xususiyatlari, hududiy tarkibi, ixtisoslashuvi hamda aholi joylashuviga ta'siri bayon qilingan. O'zbekiston Respublikasida va Samargand viloyati yer va suv resurrlarining o'zgaruvchanligi dinamikasi, undan foydalanishdagi hududiy tafovutlar hamda istiqbolli yoritilgan.

Monografiya bakalavr, magistrant, ilmiy tadqiqotchilar va yer va suv resurrlaridan foydalanishning hududiy tarkibini takomillashtirish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislariga mo'ljallangan.

Taqrizchilar: g.f.n. dots. **O.I.Muxamedov**
g.f.f.d. dots. **F.T.Rajabov**

Monografiya Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti ilmiy-texnik kengashining 2022-yildagi 7-sonli bayonoma qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8303-6-3

*Ustozim, geografiya fanlari
doktori, professor A.A.Qayumov
xotirasiga bag'ishlanadi*

KIRISH

Yer va suv resurrlari arid iqlimli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligiga katta ta'sir ko'rsatadigan tabiiy omillar sirasiga mansub. Hozirgi davrda aholining yuqori sur'atlar bilan ko'payishi va, ayni paytda, iqlimning global isib borishi sababli ko'p davlatlarda suv tanqisligi bilan bog'liq jiddiy xavf-xatarlar vujudga kelmoqda. Bu holat, o'z navbatida, yer resurrlaridan foydalanish tizimiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Birlashgan millatlar tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi (FAO) qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, jahon miqyosida yiliga 6-7 mln. gektardan ortiq haydaladigan yerlar degradatsiyaga uchrashi natijasida dehqonchilikdan chiqib ketmoqda. Bu esa, ayniqsa arid iqlimli mamlakatlarda yer-suv resurrlaridan oqilona foydalanishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yer va suv resurrlaridan foydalanishni optimallashtirish maqsadida qishloq xo'jaligida yer-suv resurrlaridan foydalanishning hududiy o'zgaruvchanligini aniqlashga, mazkur resurrlar bilan ta'minlanganlik holati va ulardan foydalanishdagi mintaqalar o'rtasidagi tafovutlarini kamaytirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvini tabiiy sharoitga moslashtirish, buzilgan yerlarni qishloq xo'jaligi oborotiga qaytarish, hududlar doirasida agroekologik siyosatni amalga oshirish, sug'oriladigan yer va chuchuk suv miqdori prognozini ishlab chiqish, yer-suv resurrlaridan foydalanishni hududiy tashkil etish va uning tarkibini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda yer-suv resurrlaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish borasida hududlarda qishloq xo'jaligini qayta ixtisoslashtirish, yer-suv resurrlarini hududiy tashkil etishni

takomillashtirish ishlari amalga oshirilmogda va bu borada sezilarli yutuqlarga erishilmogda. «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi»da «qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda ilm-fan va amaliyot integratsiyasini jadallashtirish» yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, Samarqand viloyati yer-suv resurslaridan oqilona foydalanishning hududiy tarkibi va omillarini aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer va suv resurslari salohiyatini baholash va undan oqilona foydalanish yo'llarini asoslashga O'zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi ko'p geograflarning tadqiqotlari bag'ishlangan. Yer va suv resurslarini geografik tadqiq qilishning nazariy va amaliy masalalari xorijiy olimlardan D.L.Armand, Y.D.Dmitrevskiy, K.V.Dolgoplov, A.G.Isachenko, N.N.Klyuyev, V.A.Kovda, B.I.Kochurov, V.G.Kryuchkov, A.A.Mins, A.M.Nosonov, A.N.Rakitnikov, B.G.Rozanov singari tabiiy va iqtisodiy geograflarning asarlarida ko'rib chiqilgan. Ushbu olimlarning ishlarida yer resurslarini iqtisodiy baholash va qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan tasniflash, landshaftlarning agroiktsioy salohiyatini baholash, eroziya va tuproq sho'rlanishi kabi salbiy tabiiy jarayonlarga qarshi kurashish uslubiyoti, turli tabiat zonalari va balandlik mintaqalari sharoitida yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy geografik asoslari ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda yer va suv resurslaridan foydalanishning geografik jihatlari Sh.A.Azimov, Z.M.Akramov, Y.I.Ahmadaliyev, A.Baratov, F.M.Rahimboyev, I.Q.Nazarov, A.N.Nig'matov, A.Raxmatullayev, Sh.I.Usmonov va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Bu olimlarning tadqiqotlari asosan respublikamizning turli hududlari yer va suv resurslari salohiyatini baholash, yerlarni melioratsiyalashning ilmiy asoslariga bag'ishlangan.

Hozirgacha O'zbekistonda yer va suv resurslaridan hududlar miqyosida foydalanish samaradorligini baholash mezonlari va meyorlari kompleks ravishda yetarli darajada o'rganilmagan.

Monografiyada ushbu masalalarning iqtisodiy geografik jihatlari Samarqand viloyati misolida o'rganildi.

Shuningdek, ushbu ishda:

qishloq xo'jaligi yerlarida sug'oriladigan va ekin yerlar nisbati orqali tumanlar agrar salohiyati aniqlandi;

xo'jalik tarmoqlari joylashuvining tuproq bonitet bali bilan bog'liqligi hisoblab chiqildi;

viloyatning cho'l va tog'oldi hududlarida qishloq xo'jaligi yerlarining o'zgarishiga yaylov chorvachiligining ta'sir darajasi aniqlandi;

sug'oriladigan yer hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan suv miqdori prognozi ishlab chiqildi;

Samarqand viloyati tumanlari sug'oriladigan yerlarini suv resurslari bilan ta'minlanganlik holati bo'yicha tasniflandi;

yer va suv resurslaridan foydalanishning hududiy samaradorligi (indekslarda) hisoblandi va tumanlar doirasida guruhlashtirildi.

Olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy-ekologik jihatlarning asoslanganligi, ulardan foydalanish samaradorligini baholash metodikasini takomillashtirilganligi hamda tumanlar sug'oriladigan yerlarini suv resurslari bilan ta'minlanganlik holati bo'yicha guruhlashtirilganligi, yer va suv resurslar miqdorining cheklanganligini hisobga olib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini hududlar miqyosida oqilona tashkil etishga qaratilgan tadbirlarning ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

I-BOB. YER-SUV RESURSLARINI GEOGRAFIK O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Yer resurslari qishloq xo'jaligi rivojlanishi va hududiy tashkil etilishining asosiy omili sifatida

Yer resurslari xo'jalikda asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib, u boshqa ishlab chiqarish sharoitlaridan avvalo tabiiy hosila ekanligi bilan ajralib turadi. U har qanday faoliyatning birlamchi asosi hisoblanadi va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida uning o'rnini kattadir. Yer to'g'risida antik davr olimlaridan tortib, hozirgi zamon mutaxassislari ham o'z fikrlarini bildirib, rivojlantirib kelishgan. Qadimgi grek faylasufi Ksenofont "er insonni sog'lom, to'q va adolatli qiladi (Ksenofont, mil.avv. IV asr)" deb aytgan edi [25].

Yer resurslari borasida har xil sohalarida, turlicha qarashlar mavjud. Umuman olganda, yer resurslariga berilgan quyidagi ta'riflarga e'tibor qaratilsa, ular orasidagi farqlarni ilg'ash qiyin emas.

Yer resurslari – ma'lum bir davlat, mintaq, viloyat, tuman yoki hududdagi tabiiy-tarixiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan, aniq bir xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yerlardir [20]. Ushbu ta'rifda nisbatan kengroq, umumiy xo'jalik doirasida fikr bildirilgan. Ya'ni bu yerda iqtisodiyotning har bir tarmog'i uchun xos bo'lgan yer resurslari mavjudligi nazarda tutilgan.

Yer resursi bu – yer fondining tarkibiy qismi bo'lib, u o'ziga xos tuproq sifati, iqlim, relyef, gidrogeologik xususiyatlari bilan tavsiflanadi, jamiyatning muayyan rivojlanish bosqichida undan asosan zarur mahsulotlar yetishtirishda va boshqa maqsadlarda foydalaniladi [24]. Bunda asosan yerdan qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanish nuqtainazaridan kelib chiqib ta'rif berilgan.

Bizningcha yer resurslariga berilgan ikkinchi ta'rif ancha ma'qul, chunki resurs (boylik) deganda, iqtisodiyotning biror sohasi uchun zarur bo'lgan birlamchi omil nazarda tutiladi. Qishloq xo'jaligida yer resurslari natqat birlamchi, balki asosiy, hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi. Albatta bu yerda so'z yerning ustki qatlami,

tuproq haqida ketyapi. Qishloq xo'jaligida yer va tuproqni sinonim tushunchalar sifatida qarash odat bo'lib qolgan va bu unchalik xato hisoblanmaydi. Mazkur ishda garchi, yer resurslari xo'jalik doirasida tuddiq qilinsa ham asosiy urg'u qishloq xo'jaligiga beriladi, tuproq ham yer resurslari kabi ob'ekt sifatida qaraladi. Chunki tuproq natqat tabiiy jarayonlar hosilasi, balki iqtisodiy va shunga bog'liq holda ijtimoiy rivojlanishning o'zagi hisoblanadi.

Yer qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi vositasi sifatida ma'lum bir tarixiy davrda namoyon bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan mehnat qurollari takomillashib, ishlab chiqarish jarayonlari kengayib, yerning inson hayotidagi o'rnini yanada o'rtib boradi. Biroq yer dehqonchilikda mehnat vositasi bo'lishi uchun mehnatning boshqa vositalari ham mavjud bo'lishi shart, hamda ishlab chiqarish kuchlari ma'lum darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Shunda yer qishloq xo'jaligida faol ishlab chiqarish vositasiga aylanadi. U mehnat jarayonining zaruriy moddiy shart-sharoiti, ishlab chiqarishning eng muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Yer qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarilmaydigan, alohida, original, almashitirib bo'lmaydigan ishlab chiqarish vositasidir [102].

Yer insoniyat tarixining barcha bosqichlarida iqtisodiy farovonlik asosi, insonlar hayotining zaruriy, moddiy sharoiti sifatida namoyon bo'lib keldi. Mulkiylikning yangi shakllari paydo bo'lishi, ishlab chiqarish jarayonlarining takomillashib borishi, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlari yerning tabiiy xususiyatlari va hududiy turlichaligiga bog'liqdir. Bu esa yerning asosiy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish vositasi sifatida barcha ishlab chiqarish hamda texnologik xususiyatlarini to'la va aniq o'rganishni, hamda unga amal kilishni talab qiladi. Hatto V.V.Dokuchayev ham ta'kidlaganki: «...tuproq iqlim bilan birgalikda mazkur hududning barcha qishloq xo'jalik va iqtisodiy hayotining asosidir» [39].

Yerning ishlab chiqarish vositasi sifatidagi eng asosiy xususiyati uning tuproq unumdorligidir, hamda bu xususiyati bilan yer sayyorada hayot mavjudligining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tuproqqa shu vaqtgacha rus tuproqshunos olimi